

YANGI BOSHLANUVCHILAR UCHUN CHET TILINI O‘RGANISH STRATEGIYA

Rashidova Marjona Shamsiddin qizi

1-bosqich talaba, Ingliz tili fakulteti, Samarqand Davlat chet tillar instituti

GMAIL: marjonarashidova855@gmail.com

Annotatsiya: *Ingliz tili rivojlangan tillar oilasiga kiradi va bu tilda ko‘pgina rivojlangan mamlakatlarda muloqot qilinadi. Hozirgi kunda yoshlar bu tilni o‘rganishga qiziqishgan va ular bu tilni oson tarzda o‘rganishmoqda. Ularga bu tilni o‘rganishga turli xildagi osonlashtirilgan kitoblar yoki turli xildagi platformalar yordam beryapti. Tilni endi o‘rganishni boshlaganlar ba’zi bir qiyinchiliklarga duch keladilar o‘rganish davomida. Ushbu maqolada yaqinda ingliz tilini o‘rganishni boshlaganlar uchun samarali metodikalar bor. Bu metodikalar orqali siz C1 darajalarga erishishingiz mumkin.*

Annotation: *English language belongs to the family of developed languages, and in this language, communication is carried out in many developed countries. Nowadays, young people are interested in learning this language and they are learning it in an easy way. Various types of simplified books or different types of platforms are helping them to learn this language. Those who have just started learning the language face some difficulties during the learning process. In this article, there are effective methods for those who have recently started learning the English language. Through these methods, you can reach C1 levels.*

Аннотация: *Английский язык относится к семье развитых языков, и на этом языке осуществляется общение во многих развитых странах. В настоящее время молодёжь заинтересована в изучении этого языка и они изучают его лёгким способом. Различные виды упрощённых книг или разные виды платформ помогают им в изучении этого языка. Те, кто только начал изучать язык, сталкиваются с некоторыми трудностями в процессе обучения. В данной статье есть эффективные методики для тех, кто недавно начал изучать английский язык. С помощью этих методик вы можете достичь уровня C1.*

Kalit so‘zlar: *O‘zbek tilida: Chet tili, O‘rganish, Pedagogik mahorat, Qiziqish, Motivatsiya, Duolingo, Busuu, Lug‘at, Ta‘lim, Anki*

Ingliz tilda: *Foreign language, Learning, Pedagogical skill, Interest, Motivation, Duolingo, Busuu, Vocabulary, Education, Anki*

Rus tilida : *Иностранный язык, Изучение, Педагогическое мастерство, Интерес, Мотивация, Duolingo, Busuu, Словарь, Образование, Anki.*

Hozirgi kunda nafaqat O‘zbekistonda balki boshqa chet davlatlarda ham yuqumli kasallik sifatida tarqalgan kasallik turi bu - chet tilini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish. Xorijiy tilini o‘rganish nafaqat yoshlar orasida balki qarilar orasida ham yuqumli virus kabi tarqalgan. Deyarli har bir inson kamida bitta xorijiy tilni mukammal tarzida o‘rganishi kerak degan tushuncha allaqachon miyalarda singdirib bo‘lishgan. Bu esa yosh-u qarilarga juda yordam beradi dastlabki qadamlarni qo‘yish uchun chet tilini mukamma tarzida o‘rganishga. Hozirgi kunda aksariya odamlar boshida juda katta qiziqishlar bilan boshlaydi chet tilini o‘rganishni, ammo vaqt o‘tgan sari ularni qizizqish va o‘zlariga bo‘lgan motivatsiyalari o‘lib bo‘ladi. Sababi shundaki vaqt o‘taverib ular ba‘zi qiyinchiliklarga duch keladilar va ular bu qiyinchiliklar abadiy deb o‘ylab til o‘rganishmi tashlab qo‘yadilar. Darslarga o‘quvchilarni qiziqtirish- o‘qtuvchini metodik qobilyatiga bog‘liq . Agar u o‘quvchilari boshidan qanchalik fanga qiziqтира o‘quvchilar bu fani davomli yani uzoq vaqt davomida o‘rganadilar ,qiyinchiliklarsiz. Ular xuddi o‘zlarini xuddi ona tillarini o‘rganiyotgandek his qilishadi. Professorlar yangi chet tilini o‘rganishni endi boshlagan insonlardan so‘rovnoma olganda, aksariyat insonlar o‘qiyotgan narsasini tarjima qila olmayotgandan va o‘zlari mustaqil tarzda gap tuza olmayotganidan, va shunga o‘xshash ko‘pgina qiyinchiliklarga duch kelganligi haqida shikoyat qilishmoqda. Bunga oddiygina yechim sifatida ularga ko‘proq tarzida lug‘atlar o‘rganish tavsiya qilanadi. Insonda lug‘at boyligi zo‘r bo‘lsa u boshlang‘ich daraja bo‘lsa ham xuddi native speakerlarga o‘xshab bermalol gapira oladi ,erkin tarzida gaplar tuzdi va qiyin bo‘lgan gaplarni osongina tarjima qiladi.

Hozirgi kunda zamonaviy texnologiyalar rivojlangan bu texnologiyalar rivojlangani sababli ham biror bir chet tilini o‘rganish xamirdan qil sug‘organ kabi oson bo‘lib qoldi. Chunki hozirgi kunda hammaning o‘zining shaxsiy smartfonlari

bor va ular ma’lum bir ilovalardan o’zlarining darajalarini oshirishlari mumkin. Bunga misol tariqasida shu ilovalarni keltiramiz :

- Duolingo
- Bu nima? – O‘yin tarzida til o‘rgatadigan bepul ilova.
- Nega foydali? – Grammatikani oddiy va qiziqarli mashqlar bilan tushuntiradi.
- Asosiy xususiyatlari:
- Kunlik mashqlar orqali so‘z boyligini oshirish.
- Har bir dars qisqa va qiziqarli.
- Talaffuzni yaxshilash uchun ovozli mashqlar mavjud.
- Memrise
- Bu nima? – Haqiqiy hayotda ishlatiladigan iboralar va so‘zlarni o‘rgatadigan platforma.

● Nega foydali? – Mahalliy nutq sohiblarining talaffuzini eshitib, to‘g‘ri talaffuz qilishga yordam beradi.

- Asosiy xususiyatlari:
- Video va audio darslar mavjud.
- So‘zlarni eslab qolish uchun qiziqarli mashqlar.
- Haqiqiy suhbatlarga asoslangan metodika.
- Busuu
- Bu nima? – Til o‘rganishning barcha jihatlarini o‘z ichiga olgan platforma.
- Nega foydali? – O‘rganilgan bilimlarni mahalliy nutq sohiblari bilan amaliyot qilish imkonini beradi.

● Asosiy xususiyatlari:

- Grammatika, so‘z boyligi va yozish mashqlari mavjud.
- Mahalliy odamlar bilan muloqot qilish imkoni bor.
- Sun‘iy intellekt asosida shaxsiy o‘rganish rejasi tuziladi.

● LingQ

● Bu nima? – O‘qish va tinglash orqali yangi so‘zlarni kontekstda o‘rganish uchun ilova.

- Nega foydali? – Matn, maqola va suhbatlar orqali mashq qilish imkonini beradi.
 - Asosiy xususiyatlari:
 - Ingliz, fransuz, nemis va boshqa tillarda darslar mavjud.
 - Har bir yangi so‘zni eslab qolish uchun maxsus tizim bor.
-

- Audio materiallar yordamida eshitish qobiliyatini rivojlantirish mumkin.

- HelloTalk

- Bu nima? – Butun dunyo bo‘ylab odamlar bilan jonli suhbat qilish uchun ilova.

● Nega foydali? – Real hayotda ishlatiladigan iboralarni mahalliy odamlar bilan muloqot qilish orqali o‘rganish mumkin.

- Asosiy xususiyatlari:

- Turli tillarda so‘zlashuvchi odamlar bilan yozishish va gaplashish.

- Xatolarni to‘g‘rilash va tushunishni yaxshilash uchun foydali vositalar bor.

- Ovozli xabarlar va video qo‘ng‘iroqlar orqali muloqot qilish imkoniyati.

- Tandem

● Bu nima? – Dunyo bo‘ylab odamlar bilan muloqot orqali til o‘rganish uchun ilova.

● Nega foydali? – Chet tilida jonli suhbat qilish va real nutqni o‘rganish imkonini beradi.

- Asosiy xususiyatlari:

- Video, audio va yozish orqali muloqot qilish imkoniyati.

- Har bir foydalanuvchi o‘ziga mos suhbatdosh topishi mumkin.

- Ilova ichida grammatika va so‘z boyligini oshirish uchun vositalar bor.

- Anki

- Bu nima? – Flashcard tizimi orqali yangi so‘zlarni tez eslab qolish uchun ilova.

● Nega foydali? – Takrorlash algoritmi orqali o‘rganilgan so‘zlarni mustahkamlashga yordam beradi.

- Asosiy xususiyatlari:

- So‘z va iboralarni eslab qolish uchun maxsus kartochkalar tizimi.

- O‘quv kartalarini shaxsiy ehtiyojlarga moslashtirish mumkin.

- O‘rganilgan so‘zlarni eslatib turish uchun avtomatik tizim mavjud.

- BBC Learning English

Bu nima? – Ingliz tilini bepul o‘rganish uchun BBC tomonidan yaratilgan ilova.

Nega foydali? – Real hayotga mos materiallar bilan o‘qish, tinglash va talaffuzni yaxshilashga yordam beradi va unda tashqari mavzuni ham mustahkamlashga yordam beradi.

Asosiy xususiyatlari:

- Video, audio va matnli materiallar bilan o‘rganish.

• Ishlatiladigan iboralar va grammatikani tushunarli va oson qisqa darslar bilan o‘rgatadi.

• Tinglab tushunish qobiliyatini rivojlantirish uchun BBC yangiliklari asosida mashqlar mavjud va mashqlar o‘rgangan mavzuni qayta mustahkamlashga yordam beradi.

• ChatGPT

• Bu nima? – Sun’iy intellektga asoslangan til o‘rganish va suhbat qilish uchun ilova.

• Nega foydali? – Grammatikani tushuntirish, tarjima qilish va yozish bo‘yicha yordam beradi.

• Asosiy xususiyatlari:

• Murakkab so‘zlar va grammatikani tushuntirish.

• Ingliz tilida yozilgan matnlarni tahrirlash va yaxshilash.

• Til o‘rganishda interaktiv mashqlar yaratish.

• Har xil mavzularda ingliz tilida yozish va gapirish bo‘yicha tavsiyalar berish.

Ular ingliz tilini o‘zlari bilan yoshlari teng bo‘lgan tengdoshlari bilan birga o‘rganishlari kerak.[1] Shundagina ular katta ijobiy o‘zgarishlar bo‘ladi. O‘zlari bilan teng yoshlardagi bolalar fikrlash tarzi bir xil bo‘ladi va bundan tashqari ular guruhdagi eng zo‘r o‘quvchi bo‘lishga harakat qiladilar va har kuni o‘zlari qo‘shimcha ma‘lumotlarni izlaydilar internet tarmog‘idan. Yosh o‘quvchilarga ingliz tilini o‘rgatish to‘g‘ri tanlangan taqdirda muvaffaqiyatli bo‘ladi, chunki bu katta tajriba va fidokorlik talab qiladi [2] Oldin aytib o‘tgan singari bunda o‘qituvchining pedagogik mahoratini ham katta rol o‘ynaydi u o‘quvchilarga aniq yetarli ma‘lumotlarni bera olsa shundagina ular eng zo‘r ya‘ni leadr o‘quvchilar bo‘ladi. Faqat ularga mavzu yoki lug‘at so‘rab cheklab qolmaslik kerak ba‘zida o‘zlari tengi bolalar bilan shunchaki xatolar bilan bo‘lsa ham muloqot qildirish kerak. O‘quvchilarni juftlik yoki kichik guruhlarda muloqot qilishga undash ham anchagina samarali yo‘l hisoblanadi.[3] Ularni xatolarini o‘qituvchilari tuzatib turishsa bu muloqot boshlang‘ich darajadagilar uchun samarali yo‘l bo‘ladi. O‘quvchi faqat ustoz bergan ma‘lumotlar bilan cheklanib qolmasligi kerak.[4] U kundan kunga bilimni yangilab internet tarmog‘idan qo‘shimcha ma‘lumotlar topshi kerak va bilimlarini mustahkamlash zarur. Talabalar ingliz tilidagi suhbatlarni bevosita kuzatib, tinglash orqali o‘rganishni afzal ko‘rishlarini ko‘rsatadi. [5] Bu eng yaxshi

usullardan biri sanaladi. Miqdordan ko'ra sifatga ustunlik bering. Har qanday tilni o'rganish haqida gap ketganda, hamma narsa miqdorga emas, balki sifatga bog'liq. Qisqa vaqt ichida o'nlab yangi so'zlarni o'rganish o'rniga, bir so'zni o'rganishga va uni o'nlab marta takrorlashga e'tibor qaratishingiz kerak. Bu sizni ma'lumotlarning ortiqcha yuklanishidan azob chekishdan saqlaydi. Bundan tashqari, ushbu strategiya so'z va iboralarining ma'nosini miyangizga chuqurroq joylashtirish imkonini beradi. Natijada, siz ularni osongina o'rganasiz va unutmaysiz.

Xulosa qilib aytganda biz yodlayotgan yoki o'rganayotgan narsaning soniga emas sifatiga e'tibor qaratishimiz lozim. O'z ustimizda tinimsiz harakat qilsak ham shunda muvaffaqiyatga erishamiz. Bu bizni anchagina vaqtimizni olishi mumkin. Vaqtimizni olsa ham biz asosiysi muvaffaqiyatga erishamiz va muvaffaqiyatli bo'lamiz. eng samarali yo'l shular ko'proq lug'at yodlash, ingliz tilida tinimsiz kitob kitob o'qish, o'zimizni sevimli musiqa va kinolarimizni ingliz tilida ko'rsak shunda eng zo'r o'quvchi bo'lamiz guruhda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. in-academy.uz/index.php/yo/article/download/33634/21510/34340
2. Audrey, M. (2006). Teaching English to very young learners
3. Gardner, H. (2000). Intelligence reframed: Multiple intelligences for the 21st century. Basic Books, 65(2), 108-114.
4. Cameron, L. (2003). Teaching languages to young learners. Cambridge University Press, 150-210.
5. Cummins, J. (2014). Beyond Basic Interpersonal Communicative Skills: What's Next? Canadian Modern Language Review, 10-127.
6. Damanik, J. Y. (2022). Language Learning Strategies Used by Indonesian Learners in IELTS. Studies in English Language and Education.
7. EPI, E. (2023). EF English Proficiency Index . A Ranking of 113 Countries and Regions by English Skills.
8. www.englishexpress.com.sg/articles/7-simple-ways-to-learn-english-effectively/